

**“Qushlar sinfi” bobiga oid mavzularni o‘qitishda “Nilufar guli” grafik
organeyzeridan foydalanishning samaradorligi**

K.R.Yo‘ldashev - Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya kafedrası dotsenti, b.f.f.d.
kopalboyoldashev@gmail.com

F.A.Durdiyeva-Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat Universiteti
biologiya yo‘nalishi talabasi.
durdiyevaferuza956@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Zoologiya darslarida “Qushlar sinfi” bobiga oid mavzularni Nilufar guli grafik organeyzeridan foydalanib o‘tishning afzalliklari haqida fikr-mulohazalar bayon qilingan. Qushlar hayot tarzida mavjud muammolardan kelib chiqib muammoli vaziyatni o‘quvchilarga (talabalarga) taqdim qilish asosida va bu muammolarga yechim topishda bu metoddan foylanish samarali natija beradi.

Kalit so‘zlar: Nilufar guli, grafik organayzerlar, ma’lumotlarni tarkiblashtirish, taqqoslash, vosita, metod, texnologiya.

Аннотация. В данной статье изложены размышления о преимуществах использования графического органайзера "Цветок лотоса" для изучения тем, относящихся к главе "Класс птиц" на уроках зоологии. Использование этого метода дает эффективные результаты на основе представления учащимся (студентам) проблемной ситуации, исходя из существующих проблем в образе жизни птиц, и поиска решений этих проблем.

Ключевые слова: Цветок лотоса, графические органайзеры, структурирование данных, сравнение, инструмент, метод, технология.

Abstract. This article discusses the advantages of covering topics related to the "Birds Class" chapter in Zoology lessons using the Water Lily Graphic Organizer. Based on presenting a problematic situation to students (students) based on existing problems in the bird lifestyle and finding solutions to these problems, using this method yields effective results.

Keywords: Lotus flower, graphic organizers, data structuring, comparison, tool, method, technology.

Kirish. Grafik organeyzerlar-fikriy jarayonlarni ko‘rgazmali taqdim etish vositasi bo‘lib, dars jarayonida vosita, metod yoki texnologiya sifatida qo‘llanishi mumkin.

Grafik organeyzerlar 3 guruhga bo`linadi.

1.Ma`lumotlarni tarkiblashtirish va tarkibiy bo`lib chiqish,o`rganilayotgan tushunchalar(hodisa,voqea.mavzular va shu kabilar)o`rtasida aloqa va aloqadorlikni o`rnatishning yo`l va vositalari.

2.Ma`lumotlarni tahlil qilish qilish,solishtirish va taqqoslashning yo`l va vositalari.

3.Muammoni aniqlash,tahlil qilish va uni hal etishni rejalashtirishning yo`l va vositalari.

“Nilufar guli” organeyzeri muammo va yechim grafik organayzerlar guruhiga mansub metoddir.

Muammo va yechim grafik organizatori muammoni hal qilish jarayoni uchun yaxshi. Diagramma boshlang'ich qismida muammolarni yozishni o`z ichiga oladi. Ushbu turdagi grafik organizator yordamida o`qituvchi kerakli ma'lumotlarni kerakli shaklga joylashtirishi oson bo`ladi. Bundan tashqari, ushbu muammo va yechim grafik organizatori qo`llanma bo`lib xizmat qiladi. Sizda nima qilish kerakligi va muammolarni qanday hal qilish kerakligi ro`yxati bo'lishi mumkin. Shuningdek, u o`quvchilarga tez orada qanday muammolar paydo bo'lishiga tayyor bo`lishga yordam beradi.

Natija va munozara .“Nilufar guli” chizmasi - muammoni yechish vositasi. O`zida nilufar guli ko`rinishini namoyon qiladi. Uning asosini to`qqizta katta to`rt burchaklar tashkil etadi. Tizimli fikrlash, tahlil qilish ko`nikmalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Metodni amalga oshirish bosqichlari quyidagilardan iborat. Chizmani tuzish qoidasi bilan tanishadilar,alohida, kichik guruhlarda chizma tuzadilar, to`rt burchak markazida (A katak) avval asosiy muammoni (g`oya, vazifa) yozadilar. Uning yechish g`oyalarini esa markaziy to`rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to`rt burchak(B, C, D, F, G, Y, Z, H katak)larga yozadilar. Markaziy to`rt burchakning atrofida joylashgan sakkizta to`rt burchaklarga yozilgan g`oyalarni, atrofda joylashgan sakkizta to`rt burchaklarning markaziga yozadilar, ya`ni gulning barglariga olib chiqadilar. Shunday qilib, uning har biri o`z navbatida yana bir muammodek ko`riladi.

Sinf(guruh) o`quvchilarini 5 ta,6 ta yoki 8 ta kichik guruhga bo`linadi.Har bir kichik guruh bita muammoni muxokama qiladi va yechim izlaydi. Dastlab asosiy muammo o`rtaga tashlanadi.Kichik guruhlar asosiy muammoga sabab ko`rsatadiilar.Keyin sabablar asosida muammoga yechim izlaydilar. Bu metodni maktab,litsey,texnikum va oliy ta`lim dargohlarida an`anaviy darslarda ham



“Nilufar guli”chizmasi

	B	
	D	
	G	

	Z	
B	Z	C
D	A	F
G	H	Y
	H	

	C	
	F	
	Y	

1. Dastlab talabalar 8 ta kichik guruhga ajlatiladi.
2. Dostkada yoki qog'ozda asosiy muammo talabalarga taqdim qilinadi.
3. Har bir kichik guruh asosiy (A) muammoga sabab ko'rsatadilar va uni yechimi izlaydilar.
4. Muammo va yechimni o'qituvchi bilan birgalikda muhokama qilib, taklif va tavsiyalar taqdim qiladilar.

Z-qushlar tabiiy ozuqasining etishmasligi va suniy oziqlantirishning to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi.



C-qushlar kasalliklarining yaxshi o'rganilmaganligi va davolash chora tadbirlarining yetarli emasligi.

D-brokenarlar ta'siri va ularga qarshi choralarning yetarli emasligi

F-tabiiy turdagi qushlarni ko'paytiradigan buyrtmaxonalarinig kamligi.

G-qushlarni muxofoza qilish chora tadbirlarining mukammal emasligi

H-Atmosfera va suvning ifloslanishi

Y-Olim va mutaxassislarning etishmasligi.

Bunda kichik guruhlardagi talabalar muammolarni bartaraf qilish yo'llari va yechimi haqida fikr mulohazalar yuritadilar hamda o'z g'oyalarini taklif qiladilar. Natijada yuqorida ko'rsatilgan muammolarga yechim uchun imkoniyat yaratiladi

Xulosa. Barcha grafik organayzerlar fanlarni o'zlashtirishda, mavzularni mazmunini soddalashtirib, katta sig'imdagi bir necha mavzularni birlashtirib, ularni asosiy mazmunini ochib o'quvchilarga yetkazishda asosiy omil bo'lib hizmat qiladi.

O'quvchilar sohaga oid mavjud muammoni tushungan holda uning yechimini izlashga astoydil harakat qiliadilar. "Nilufar guli" organeyzeri muammolarni hal qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, darslarda qo'llash samarali natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.J.O.Tolipova. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalar.Darslik. Toshkent.Cho'lpon.2011y.

2.Tolipova J.O., A.T.Gafurov. Biologiya o'qitish metodikasi. Biologiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. T., 2012 y.

3.S.X.Suliyeva,Q,G'.Zokirov. Biologiya o'qitish metodikasi.O'quv qo'llanma. Toshkent,2020 y.

4.Dadayev S., Saparov Q. Umurtqalilar zologiyasi. Toshkent. Turon-Iqbol nashriyoti, 2019 yil. 720 b.

5.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi . "Chinor ENK" nashriyoti Toshkent.2019y